



QISSA JANRINING TARIXIY TARAQQIYOTI

Robiyaxon Sobitova Salohiddin qizi

Qo'qon Davlat Universiteti, iqtidorli talaba

robixaxonsobitova04@gmail.com

+998917392805

Annotatsiya: Ushbu maqolada epik tur va uning janrlari haqida qisqa kirish, qissa janrining vujudga kelish tarixi, ushbu janrning turlari va xususiyatlari haqida nazariy va amaliy ma'lumotlar berib o'tilgan. Shuningdek, qissa janri nazariyasini o'rgangan olimlarning turli xil qarashlari, janr ijodkorlari, zamonaviy qissachilikning yorqin vakillari asarlaridan namunalar keltirib o'tilgan.

Annotation: this article provides a short introduction about the epic species and its genres, a history of the emergence of the narrative genre, theoretical and practical information about the types and characteristics of this genre. Also, samples were cited from the works of various views of scientists who studied the theory of the genre of short stories, creators of the genre, vivid representatives of modern short stories.

Kalit so'z: adabiy tur, adabiy janr, kichik epik janr, latifa, masal, hikoyat, rivoyat, ertak, afsona, badia, etyud, ocherk, qissa.

Keyword: literary type, literary genre, small epic genre, anecdote, parable, narrative, narrative, fairy tale, legend, badia, etyud, ocherk, short story.

Badiiy adabiyotning nazariy asoslari qadimiy "Poetika"ga borib taqalar ekan, uni tahlilga tortishda Aristotel tasnifiyotida zikr etilgan barkamol turlar nuqtai nazaridan yondashish maqbul qarordir. Epika, lirika, daramatika nomi ostida jamlangan insoniyatning bebaho durdonalari davrlar osha shakl va mazmun hodisasida yangilanishlar bilan talqin etilsa-da, nazariy mezonlari u qadar asliyatdan uzoqlashib ketmadi. Epik turning spesifik xususiyatlari boshqa adabiy turlarga nisbatan ob'ektivlik, voqeabandlik va ko'lamdorligida namoyon bo'ladi.

Epik asarning muhim xususiyatlaridan biri hayotni keng ko'lamda qamrab olish hisoblanib, janrlarga ajratishda uning ko'lamdorligi muhim ahamiyat kasb etadi. Epik asarlar qamroviga qarab uch guruhga ajraladi:

1. Kichik epik janrlar
2. O'rta epik janr
3. Katta epik janr

Kichik epik janr tarkibiga kiruvchi asarlarda inson hayotining uncha katta bo'lmagan ma'lum bir voqealari tasvirlanadi. Hikoya, insho, qissa, latifa, badia, ertak, etyud kabi janr bunga misol bo'la oladi.



O'rta epik turga qissa janri mansub bo'lib, unda bir va unga bog'liq bo'lgan bir necha shaxs taqdiri o'rtacha hajmda tasvirlanadi. Ko'lamdorlik xususiyati hikoyaga nisbatan kengroq.

Katta epik janrda esa xayotning keng manzarasi tasvirlangan, insoniyatning bugungi kuni va kelajagi bilan bog'liq muammolar batafsil yoritib beriladi. Katta epik tur tarkibiga roman, dialogiya, tetrologiya, doston kabi hajman keng va ko'lamdor janrlar kiradi.

O'rta epik turga mansub qissa janri o'zbek nasrida o'ziga xos o'ringa ega. "Qissa" so'zi arab tilidan olingan bo'lib, "hikoya", "sarguzasht" ma'nolarini anglatadi.

Qissada syujet va kompozitsiya hikoyaga qaraganda murakkabroq romanga qaraganda soddaroq shaklda ifoda qilinadi. Romanda yaxlit bir davr holati aks ettirilishi zarur bo'lsa, qissada shu davrning yozuvchi tanlab olgan bir- ikki qahramoni taqdiri ko'rsatib beriladi. Lekin har ikki janrda ham davr mohiyati umumlashma tarzda ochib berilishi kerak. G'afur G'ulomning „Yodgor“⁴⁵, „Shum bola“⁴⁶, Sadridin Ayniyning, „Sudxo'ring o'limi“⁴⁷, Abdulla Qahhorning „Sinchalak“⁴⁸, Ne'mat Aminovning „Bir asr hikoyati“⁴⁹, keying davr qissachilik namunalaridan Isajon Sultonning „Onaizorim“⁵⁰, Bahodir Qobulning „Ena shamol“, „Jovdiragan oy“⁵¹, Ulug'bek Hamdamning „To'lin oy“⁵², Nazar Eshonqulning „Urush odamlari“⁵³, „Momoqoshiq“⁵⁴, „Tun panjaralari“⁵⁵, „Qora kitob“⁵⁶, Murod Muhammad Do'stning „Mustafo“⁵⁷, „Iste'fo“⁵⁸, „Galatepaga qaytish“⁵⁹, Erkin A'zamning „Otoyining tug'ilgan yili“⁶⁰ kabi asarlari qissaning yorqin namunasi hisoblanadi.

Qissa janri zamonaviy adabiyot mahsuli emas, ular qadimdan xalq og'zaki ijodining qissago'ylik, qissachilik an'analari zahirida shakllanib kelgan. Farqli jihati shundaki, folklordagi qissalar voqeaband xarakterga ega bo'lib, qahramon hayoti va boshdan o'tkazgan kechinmalari hikoya qilingan rivoyaviy asar sifatida ko'rilgan. Qissalar folklorda xuddi dostonlar singari og'zaki hikoya qilinib, variantlilik xususiyatiga ega bo'lgan. Bular sirasiga xalqda afsona bo'lgan Mashrab, Ibrohim Adham haqidagi qissalar misol bo'la oladi.

O'zbek mumtoz adabiyoti tarixiga nazar soladigan bo'lsak, lirik turning nasrga qaraganda ko'proq taraqqiy etganini ko'rishimiz mumkin. Biroq, nasriy janrning elementlari boshqa turdagi asarlar zahirida, xususan, tarixiy mavzudagi asarlarda yaqqol ko'zga tashlanadi. Ayniqsa, Hazrat Alisher Navoiyning „Tarixi mulki ajam“, „Tarixi anbiyo va hukamo“

⁴⁵ G'afur G'ulom. Yodgor. - Toshkent: Ziyo nashr-2023

⁴⁶ G'afur G'ulom. Shum bola. - Toshkent: G'ulom nashriyoti-1983

⁴⁷ Sadridin Ayniy. Sudxo'ring o'limi. - Toshkent: O'qituvchi-1982

⁴⁸ Abdulla Qahhor. Sinchalak. - SSSR nashriyoti-1960

⁴⁹ Ne'mat Aminov. Bir asr hikoyati. - Toshkent: Manaviyat-2002

⁵⁰ <https://ziyouz.uz/ozbek-nasri/isajon-sultonov/isajon-sulton-onaizorim-qissa/>

⁵¹ <https://n.ziyouz.com/portal-haqida/xarita/uzbek-nasri/bahodir-qobul-1966/bahodir-qobul-ena-shamol-qissa>

⁵² <https://www.ziyouz.com/portal-haqida/xarita/uzbek-nasri/ulug-bek-hamd-1968/ulug-bek-hamd-to-lin-oy-qissasi>

⁵³ <https://ziyouz.uz/ozbek-nasri/nazar-eshonqul/nazar-eshonqul-urush-odamlari-qissa/>

⁵⁴ <https://ziyouz.uz/ozbek-nasri/nazar-eshonqul/nazar-eshonqul-momoqoshiq-qissa/>

⁵⁵ <https://ziyouz.uz/ozbek-nasri/nazar-eshonqul/nazar-eshonqul-tun-panjaralari-issa/>

⁵⁶ <https://youtu.be/V-Z1GzQNDWg?si=GOBzJZ0DleD0wk7q>

⁵⁷ <https://n.ziyouz.com/portal-haqida/xarita/uzbek-nasri/murod-muhammad-do-st-1949/murod-muhammad-do-st-mustafo-qissa>

⁵⁸ <https://n.ziyouz.com/portal-haqida/xarita/uzbek-nasri/murod-muhammad-do-st-1949/murod-muhammad-do-st-iste-fo-qissa>

⁵⁹ <http://qr-ebook.uz/file/read/e49e969e-420b-440f-a07d-386567251a2e.pdf>

⁶⁰ <https://mutolaa.com/book/otoyining-tug-ilgan-yili>



singari asarlari tarkibida qissa janrining shakllanish, rivojlanish jarayonlari namoyon bo'lgan.

Shuningdek, payg'ambarlar, avliyolar, karomat egalari va hakimlar hayoti ifodalangan hikoyala ham qissa nomi bilan yuritilgan. Jumladan, "Bobo ravshan" qissasi, Nosuriddin Rabg'uziyning "Qissasi Rabg'uziy" kabi asarlari qissachilikning ibtidolariga yorqin namun bo'la oladi.

XX asrga kelib o'zbek adabiyotida qissaning yangi shakllari paydo bo'la boshladi. Hamzaning "Yangi saodat"⁶¹, Cho'lponning "Doktor Muhammaddiyor"⁶² asarlari zamonaviy qissaning o'zbek adabiyotidagi ilk namunasi hisoblanadi. Yuqorida sanab o'tilgan asarlarning umumlashtiruvchi jihati e'tibor markazida qahramonning turishidir. Dilmurod Qur'onov "Adabiyot nazariyasi" risolasida: "Shu xususiyati bois «qissa» so'zi ilgari hamma vaqt qahramon ismi bilan birga qo'llangan, «qissa» so'zi qahramon ismi bilan assotsiatsiyalangan. Natijada bu so'z «kimdir birovning hayotidan hikoya» ma'nosini anglatadi, ya'ni mohiyatan janrning asosiy belgisini ataydi. Albatta, janr muttasil rivojlanish-o'zgarishda yashaydi, biroq uni belgilovchi javhar-xususiyat haqida bunday deb bo'lmaydi",- degan fikrlarni bildirib o'tadi.

Sho'ro davriga kelib qissaga musabat va qarashlar o'zgarib, kengayib bordi. "Qissa" so'zi o'rnida "povest" atamasini qo'llash keng tus oldi. Umuman olganda, "qissa" va "povest" atamasining lug'aviy mazmuni bir bo'lib, "hikoya qilmoq" ma'nosini anglatadi. Biroq adabiyotda "povest" terminining paydo bo'lishi ayrim tushunmovchiliklarga sabab bo'ldi. Chunki, qissa va povest sinonim sifatida ham alohida janr sifatida ham qo'llanila boshladi. Lekin bu ikki nomni alohida janr sifatida qo'llash assosiz ekanini D.Qur'onov o'zining "Adabiyot nazariyasi" kitobida tushuntirib o'tadi. Uning fikricha "... qissa va povest tushunchalarini sinonim qilib qo'llashning ham zarurati yo'q. Qissaning poetik qurilishi maqsadga ya'ni qahramonga qaratilgani bilan belgilanadi. Qissada syujetdagi barcha voqealar qahramon atrofida birlashtiriladi. Ko'rinadiki, qissaning syujeti romanniki kabi ko'p tarmoqli emas ya'ni qissada syujet liniyalari ko'p bo'lmaydi..."⁶³

G'arb adabiyotshunosligida qissaga alohida janr sifatida qaralmaydi. Umuman olganda, qissa tushunchasi mavjud emas. Nasriy asarlarning romandan boshqa barcha turlari "novella" termini orqali ifodalanadi. Hozirda yaratilayotgan o'zbek adabiyotidagi qissalar povest terminiga to'g'ri kelsa ham, dastlabki qissalarga bu mazmunni berish noto'g'ri hisoblanadi. O'zbek adabiyoti tarixida rivoyat qilish usuli bilan nasriy yoki nazmiy yo'lda yaratilgan tarixiy-afsonaviy asarlar "qissa" deb yuritilgan, qadimgi rus adabiyotida esa har qanday nasriy asar "povest" hisoblangan. Zamonaviy adabiyotimizdagi "povest" bilan bir mazmunda qo'llanuvchi qissalar roman bilan hikoya o'rtasidagi o'rtacha hajmdagi nasriy janrni ifodalaydi. Belinskiy "Poeziyaning xil va turlarga bo'linishi" maqolasida: "Povest ham romanning o'zginasi, faqat hajmi kichikroq, asarning hajmi mazmunning hajmi va

⁶¹ <https://n.ziyouz.com/portal-haqida/xarita/uzbek-nasri/hamza-hakimzoda-niyoziy-1889-1929/hamza-hakimzoda-niyoziy-yangi-saodat-roman>

⁶² <https://n.ziyouz.com/portal-haqida/xarita/uzbek-nasri/abdulhamid-cho-lpon-1897-1938/abdulhamid-cho-lpon-do-xtur-muhammaddiyor-hikoya>

⁶³ D.Qur'onov, "Adabiyot nazariyasi asoslari. Akademiya nashri-2018, 378-b.



mohiyatiga qarab belgilanadi”,⁶⁴ - deb yozgan. Povest bilan qissa janrining farqiga to'xtalgan yana bir fikrlardan biri Hotam Umurovning “Adabiyotshunoslik nazariyasi” (toshkent, Xalq merosi nashryoti-2004.) darsligida keltirib o'tiladi. Adabiyotshunos olim: “Yoki janrlarning xususiyatlarini chuqur o'rganmay turib, yuzaki fikrlar yuritish noto'g'ri xulosalarga olib kelaveradi. Natijada, “Povest” o'zbek adabiyotida “Qissa” deb yuritiladi, Sharqda poema “Doston” deb yuritiladi kabi asossiz fikrlar haqiqatdek aytilaveradi. Janrlarni o'rganmay turib uni tushinish, o'sha janrda yuksak asarlar yaratish ham mumkin emas”,⁶⁵ - deb yozadi.

Qissa qadimiy janr bo'lib, adabiy-tadrijiy jarayonda bir qancha bosqichlarni bosib o'tib, nazariy mukammallik kasb etdi. Qissalar yaratilishiga va qanday voqelikni aks ettirishiga qarab bir necha turlarga bo'linadi:

- 1.Yumoristik yo'nalishda
- 2.Ijtimoiy-maishiy yo'nalishda
- 3.Hujjatli yo'nalishda
- 4.Sarguzasht yo'nalishda
- 5.Detektiv yo'nalishda
- 6.Kinoqissa yo'nalishida
- 7.Biografik yo'nalishda
- 8.Sentimental yo'nalishda
- 9.Tarixiy yo'nalishda
- 10.Ilmiy-fantastik yo'nalishda

Adabiyotshunosligimizda qissachilik yo'nalishida ijod qilib, badiiy durdonalarimiz safini salmoqli darajada kengaytirgan adiblarimiz talaygina. Ulardan ayrimlari haqida quyida keltirib o'tamiz. Xudoyberdi To'xtaboyevning “Feletondan keyin”⁶⁶(1963), “Sahrli qalpoqcha”(1964), “Muhabbat qo'shig'i”(1967),⁶⁷ “Jonginam, shartingni ayt”(1969), “Konizar yulduzlari”(1978), “Omonboy va Davronboy sarguzashti”(1974)⁶⁸ qissalari, Tohir Malikning “Charxpalak”, “Alvido, bolalik”, “Zaharli g'ubor”⁶⁹, “So'nggi o'q”⁷⁰, “O'v”⁷¹, “Falak”⁷², “Bir ko'cha, bir kecha”, “Chorraxada qolgan odamlar”⁷³, “Somon yo'li elchilari”, “Murdalar gapirmaydilar”⁷⁴, “Qaldirg'och”⁷⁵ kabi, O'lmas Umarbekovning “Sevgim –

⁶⁴ Belinskiy . Tanlangan asarlar .Poeziyaning xil va turlarga bo'linishi maqolasi.Toshkent:O'z.SSSR Davlat nashriyoti-1955. 179-b.

⁶⁵ H.Umurov. “Adabiyotshunoslik nazariyasi” ,Toshkent, Xalq merosi nashriyoti-2004.244-b.

⁶⁶<https://www.facebook.com/Yakkasaroyakm/posts/xudoyberdi-toxtaboyevfelyetondan-keyin-hikoyalar-telegram-manzilimiz-orqali-yukl/128898675462448/>

⁶⁷<https://library-samdukf.uz/wp-content/uploads/2023/04/Muhabbat-qoshigi-2.pdf>

⁶⁸https://zakm.uz/media/books/X._Toxtaboyev_Omonboy_bilan_Davronboy.pdf

⁶⁹ <https://kutubxona.samduuf.uz/book?id=4378>

⁷⁰<https://library-samdukf.uz/product/tohir-malik-songgi-oq-qissa/>

⁷¹<http://42maktabdehq.zn.uz/files/2017/01/Ov-qissa.-Tohir-Malik.pdf>

⁷²http://217.30.173.42/jirbis2/components/com_irbis/images/covers/-3/6286/falak__1.pdf

⁷³<https://kutubxona.samduuf.uz/book?id=4779>

⁷⁴<https://n.ziyouz.com/kutubxona/category/41-o-zbek-nasri?download=724:tohir-malik-murdalar-gapirmaydilar-qissa>

⁷⁵https://uniwork.buxdu.uz/resurs/12600_2_FEEFFC8873F9F3542BC319496671D879482125C2.pdf



sevgilim”⁷⁶, “Kimning tashvishi yo‘q”⁷⁷, “Urush farzandi”⁷⁸, “Yoz yomg‘iri”⁷⁹, “Damir Usmonovning ikki bahori”, “Cho‘li Iroq”⁸⁰, “Oq qaldirg‘och” kabi, Primqul Qodirovning “Qadrim”⁸¹, “Erk”⁸², “Meros”⁸³, “Najot”, “Yayra institutga kirmoqchi”, “Akromning sarguzashtlari”⁸⁴ kabi, O‘tkir Hoshimovning “Cho‘l havosi”⁸⁵, “Bahor qaytmaydi”⁸⁶, “Qalbingga quloq sol”⁸⁷, “Ikki karra ikki-besh”⁸⁸, “Shamol esaveradi”⁸⁹, “Odamlar nima derkin?”⁹⁰ kabi, Erkin A‘zamning “Shoirning to‘yi”⁹¹, “Pakana oshiq ko‘ngli”⁹², “Guli-guli”⁹³, “Chapaklar yoki chalpapaklar mamlakati”⁹⁴ qissalari, “Jannat o‘zi qaydadir”⁹⁵ dramatik qissasi, “Suv yoqalab”, “Zabarjad” kinoqissa, Xayriddin Sultonovning “Yozning yolg‘iz yodgori”⁹⁶, “Ko‘ngil ozodadur”⁹⁷, “Saodat sohili”⁹⁸, “Ajoyib kunlarning birida” kabi qissalar yaratilgan va yaratilib kelinmoqda.

Xulosa qilib aytganda, qissa o‘zbek adabiyotida keng tarqalgan janrlardan biri bo‘lib, bu yo‘nalishda tarixning uzoq davrlaridan to hozirgi zamongacha yozuvchi-adiblarimiz tomonidan barakali ijod qilib kelingan. Qissa epik turning o‘ziga xos janri sifatida insonning ruhiy olamini chuqur ifoda etish va jamiyat asliyatini badiyat orqali aks ettirish uchun qulay adabiy janrlardan biridir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Abdurahmonova F. O‘zbek adabiyotida qissa janri taraqqiyoti talqini. *New Renaissance*. 2023.11.01.3030-3753.
2. Axmedova H. Istiqlol davri o‘zbek qissachiligida ayol ruhiyatining badiiy talqini. *Journal of innovations in scientific and educational research* volume-6 issue-12(30-december).
3. Belinskiy. Tanlangan asarlar. Poeziyaning xil va turlarga bo‘linishi maqolasi. Toshkent: O‘z. SSSR Davlat nashriyoti-1955.179-b.

⁷⁶<https://n.ziyouz.com/kutubxona/category/41-o-zbek-nasri?download=595:o-lmas-umarbekov-sevgim-sevgilim-qissa>

⁷⁷<https://n.ziyouz.com/kutubxona/category/41-o-zbek-nasri?download=591:o-lmas-umarbekov-kimning-tashvishi-yo-q-qissa>

⁷⁸<https://mutolaa.com/book/urush-farzandi>

⁷⁹<https://n.ziyouz.com/kutubxona/category/41-o-zbek-nasri?download=597:o-lmas-umarbekov-yoz-yomg-iri-qissa>

⁸⁰<https://n.ziyouz.com/portal-haqida/xarita/uzbek-nasri/o-lmas-umarbekov-1934-1994/o-lmas-umarbekov-muhabbat-qo-shig-i-hikoya>

⁸¹[https://ziyouz.com/books/uzbek_nasri/Primqul%20Qodirov.%20Qadrim%20\(qissa,%20hikoyalar\).pdf](https://ziyouz.com/books/uzbek_nasri/Primqul%20Qodirov.%20Qadrim%20(qissa,%20hikoyalar).pdf)

⁸²<https://n.ziyouz.com/kutubxona/category/41-o-zbek-nasri?download=638:pirimqul-qodirov-erk-qissa>

⁸³<https://www.scribd.com/document/703735852/Primqul-Qodirov-Meros-Kitoblar-pdf>

⁸⁴<https://n.ziyouz.com/kutubxona/category/17-bolalar-kutubxonasi>

⁸⁵https://zakm.uz/media/books/O._Hoshimov_Shamol_esaveradi.pdf

⁸⁶<https://mykitob.uz/badiiy-kitoblar/otkir-hoshimov-bahor-qaytmaydi/>

⁸⁷<https://www.youtube.com/watch?v=QPC3byMSkog>

⁸⁸<https://mutolaa.com/uz/book/ikki-karra-ikki-besh>

⁸⁹https://zakm.uz/media/books/O._Hoshimov_Shamol_esaveradi.pdf

⁹⁰https://zakm.uz/media/books/O._Hoshimov_Shaharlik_kuyov.pdf

⁹¹<https://youtu.be/K8BVFY2ApVQ?si=M8rjozAsdmVWeTId>

⁹²<https://kh-davron.uz/yangiliklar/muborak-kin/erkin-azam-pakananing-oshiq-kongli.html>

⁹³<https://ziyouz.uz/uzbek-nasri/erkin-azam/erkin-azam-guli-guli-issa/>

⁹⁴<https://staff.tiiame.uz/storage/users/452/books/8rIVBoeaKEogs9wPB3YjlvDyqyuE73og0gMSE68.pdf>

⁹⁵<https://mutolaa.com/uz/book/jannat-o-zi-qaydadir>

⁹⁶<https://mutolaa.com/ru/book/yozning-yolg-iz-yodgori>

⁹⁷<https://www.scribd.com/document/787475882/Xayriddin-Sultonov-Ko-ngil-ozodadur-qissa>

⁹⁸https://zakm.uz/media/books/O._Hoshimov_Shamol_esaveradi.pdf



TANQIDIY NAZAR, TAHLILIY TAFAKKUR VA INNOVATION G'OYALAR



4. Nazarova Sh. Yangi qissachilik sarhadlari (2012 yil qissalari tahlili) Sharq yulduzi jurnali. 2013-yil, 3-son
5. Quronov D. Adabiyot nazariyasi asoslari. - Toshkent: Navoiy
6. Sultonov I. Adabiyot nazariyasi. - Toshkent: O'qituvchi, 2005.
7. To'xliyev B. 11-sinf adabiyoti 2-qism. - Toshkent: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi Davlat ilmiy nashriyoti, 2018.
8. Umurov H. Adabiyotshunoslik nazariyasi. - Toshkent: A. Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 2004.
9. Yo'ldoshev Q. O'zlik sari yo'l. O'zbekiston xalq shoiri Anvar Obidjon tavalludiga 70 yil. - Toshkent, 2017. 10-bet.
10. O'zbek tilining izohli lug'ati. O'zbekiston milliy ensiklopediyasi. Davlat ilmiy nashriyoti (2006) II-IV jildlari.